



Qoraqalpog'istonda Asalarachilik Kadastrini Tashkillashtirishning Ahamiyati Va Zarurligi

Mualliflar – **Tursinbekova Gúlmira** – 06.01.10- «Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi» ixtisosligi bo'yicha 1- bosqish tayanch doktranti.

Reimov Nietbay - qishloq xójaligi fanlari doktrori, professor.

Qoraqalpog'iston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalar institutining
«Yer kadastr va yerdan foydalanish» kafedrasini mudiri.

Ízoh – Ilmiy maqolada Qoraqalpog'istonda asalarachilik kadastrini tashkillashtirish uchun asalari oilalarini kadastrli tug'ri joylashtirish haqida so'z etiladi.

Аннотация. В научной статье говорится об изучении кадастрового размещения пчелиных семей для развития пчеловодства в Каракалпакстане.

Annotation. The scientific article talks about the study of the cadastral placement of bee colonies for the development of beekeeping in Karakalpakstan.

Kalit so'zlar –Qoraqalpog'iston, noquloy iqlim, asalari, kadastr, nektar, o'simlik, Inson, asal.

Ключевые слова -Каракалпакстан, неблагоприятный климат, пчелы, кадастр, нектар, растение, человек, мед.

Key words - Karakalpakstan, unfavorable climate, bees, cadastre, nectar, plant, human, honey.

Kirish

Ózbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev [3] ning 2017 yil 31 maydagi PF-5065-sonli «Yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish nazoratini kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'grisida»gi farmonida yerga haqiqiy egalik qilish, yerdan suv táminatiga, yer va iqlim sharoitiga qarab oqilona foydalanish va yerni doima noxush omillardan muhofaza qilish nazoratini kuchaytirishda geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirib borish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish haqida birma bir va aniq vazifalar belgilab berilgan.

Asalarichilik sohasi qishloq xójaligining muhim tarmo'gi hisoblanadi. Asalarilardan inson so'g'ligi uchun zarur bo'lgan asal, xalq xójaligida ishlatiladigan mum, meditsinada ishlatiladigan asalari suti, propolis hamda asalari zahari olinadi. Ózbekistonda, shuningdek Qoraqalpog'istonda asalarichiligini rivojlantirish bóyicha Ózbekstan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №239 chi sonli maxsus qarori ham bor. Qoraqalpog'istonda asalarichiligin hali da rivojlantirish bóyicha Respublika Yuqori Kengashi majlisida da qarab chiqilib, maxsus Qarorlar qabul qilingan.

Davlat dasturi qabul qilingandan sóng sohada ijobiy ózgarishlar kuzatildi. Jumladan, asalari oilalarining soni 145 mingtadan 260 mingtaga, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer





xójaliklari soni 4491 tadan 5339 taga, órmon xójaliklari soni 36 tadan 60 taga kópaydi, asal ishlab chiqarish 2340 tonnadan 3786 tonnaga oshdi.

Dun` xalqlarining órtacha asal mahsulotlarini qóllanishi bir yilga 3 kg ga etgan bólsada, darvoqe jon boshiga 1 kg ga bir vaqtda, Qoraqalpog`iston aholisining jon boshiga bitta yilda toza asal mahsulotini qóllanishi 100 grammga teng kelar ekan [2].

Tadqiqot o`tkazilgan usul va joylashgan wrni

Tadqiqotlar dala sharoitida olib borilib, bunda “Dala tajribalarini ótkazish uslublari” uslubiy qóllanmasi, Asal resurslari kadastrini tashkil etish bóyicha uslubiy kórsatmalar; yerlardan oqilona foydalanish. Toshkent; ID-1255. 2018.; 1:10000, 1:25000 masshtablardagi Chimboy tumanidagi “Qamis ariq” fermer xójaligi yerlarining xaritalari; qurilish uchun injenerlik qidiruvlari xujjati (KMK 01.07.97y.); topografik semka bóyicha yóriqnoma asosida amalga oshirilgan. Tajriba Chimboy tumanidagi Qamısarık xwjaligidagi «Jaksılık» fermer xwjaligida olib borildi.

Tajriba natijalari

Asalarichilikni respublikada yanada rivojantirish tógrisida kópgina qarorlar qabul qildi. Shu jumladan Ózbekiston Respublikasi Prezidenting 2017-yil 16 oktyabrdagi “Respublikamizda asalarichilik tarmog`ining yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tógrisida”gi – 3327 sonli qarori qabul qilindi. Bu qaror yordamida Respublikamizda asalarichilik tarmog`i jadal rivojlandi, uning moddiy-texnika táminoti, kadrlar bilan táminlash ishlari mustahkamlandi.

Asalari yetti xazinaning biri – deydi xalqimiz. Asalarilar kóplab shifobahsh asal, mum, propolis, gulchangi tóplashi bilan hamda ayni paytda qishloq xójalik ekinlarini, ayniqsa bo`gdorchilik, sabzavotchilik, issiqxona xójaliklari va paxtachilikni rivojlantirishga katta ijobiy tásir kórsatadi. Shu boisdan ham, u qishloq xójaligida serdaromad sohalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Ózbekistonda asalarichilikka bólgan talab va uning shifobaxsh maxsuloti bólgan asal va asalari mahsulotlari (mum, prapolis, guulchangi (perga), asalari suti va zahari) yetishtirishga oqilona ixtisoslashuvini saqlab qolish, mustaqil respublikamizningkun sayin bozor iqtisodiyotiga ótayotgan davrida iqtisodiyotimizning asosini tashkil etadi.

Respublikamiz asalarichilari oldiga xar bir asalari oilasining mahsuldorligini oshirish hisobiga asal va asalari mahsulotlarini yetishtirishni kópaytirishga qat`iy vazifasi qóyilgan. Buning uchun har bir asalarichidan va har bir rahbardan, asalari oilasini zooveterinariya qoidalari asosida parvarishlab, asalarilarni tez-tez serasal ósimliklar ósadigan joylarga kóchirib turishni talab qiladi [7].

Asalarilarning foydali va serdaromad tomonlari shundaki, ular ósimlik gullarini chetdan changlatish yóli bilan ekinlar, hosildorligini 20-45% gacha oshirishga sabab bóldi. Respublikamiz sharoitida esa góza, bog`lar, beda va dukkakli ósimliklar, ozuqabop hamda poliz ekinlari maydonlari kengayib borishi tufayli, qishloq xójalik ekinlarini changlatishda asalarilarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda [7].

Asalarichilikni respublikada yanada rivojantirish tógrisida kópgina qarorlar qabul qildi. Shu jumladan Ózbekiston Respublikasi Prezidenting 2017-yil 16 oktyabrdagi «Respublikamizda asalarichilik tarmog`ining yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tógrisida»gi – 3327 soli qarori qabul qilindi. Bu qaror yordamida Respublikamizda asalarichilik tarmog`i jadal rivojlandi, uning moddiy-texnika táminoti, kadrlar bilan táminlash ishlari mustahkamlandi [1].

Respublikamizda social va iqtisodiy rivojlantirishning 2026 yilgacha bólgan davrga móljallangan asosiy yónalishlarida ham asalarichilikni jadal usulda rivojlantirish móljallangan. Mamlakat oziq-ovqat dasturini amalga oshirishda ham asalarichilik katta ahamiyatga egadir [3].

Tajribada asalari yashiklarini kadastrli tug`ri joylashtirish bóyicha o`tkazilgan amaliy dala tajribasida tajriba davomida nazorat variantda hisobli yashiklardan (4 yashikdan wrtacha)



olingan asal hosili miqdori 2,4 kilogrammga tug'ri keldi. Olingan asalning rangi oqchil sarg'ish rangda b'ldi va asal sifatiga berilgan baho 10 ballik baholash tizimida 6 ballga tug'ri keldi. Iyun oyida olingan hosil miqdori, rangi va sifatini tahlillab k'rganimizda hisobli yashiklardan (4 yashikdan o'rtacha) olingan asal hosili miqdori 1,9 kilogrammga tug'ri keldi. Olingan asalning rangi oqchil sarg'ish rangda b'ldi va asal sifatiga berilgan baho 10 ballik baholash tizimida 6 ballga tug'ri keldi [4,5,6].

Daraxtzorlar (bog'lar) qoshiga quyilgan variantda hisobdagi 4 yashikdan olingan asal hosili miqdori 4,3 kilogrammga tug'ri keldi. Olingan asalning rangi ochiq sariq rangda bo'ldi va asal sifatiga berilgan baho 10 ballik baholash tizimida 9 ballga tug'ri keldi. Iyun oyida olingan hosil miqdori, rangi va sifatini tahlillab k'rganimizda hisobli yashiklardan (4 yashikdan o'rtacha) olingan asal hosili miqdori 3,4 kilogrammga tug'ri keldi. Olingan asalning rangi ochiq sariq rangda b'ldi va asal sifatiga berilgan baho 10 ballik baholash tizimida 9 ballga tug'ri keldi.

Bedazorlar qoshiga quyilgan variantdan hisobdagi 4 yashikdan olingan asal hosili miqdori 3,7 kilogrammga tug'ri keldi. Olingan asalning rangi oqchil sarg'ish rangda b'ldi va asal sifatiga berilgan baho 10 ballik baholash tizimida 8 ballga tug'ri keldi. Iyun oyida olingan hosil miqdori, rangi va sifatini tahlillab k'rganimizda hisobli yashiklardan (4 yashikdan o'rtacha) olingan asal hosili miqdori 3,5 kilogrammga tug'ri keldi. Olingan asalning rangi oqchil sarg'ish rangda bo'ldi va asal sifatiga berilgan baho 10 ballik baholash tizimida 8 ballga tug'ri keldi [4,5,6].

Yaylovzorlar (yantaqzorlar) qoshiga quyilgan variantdan hisobdagi 4 yashikdan olingan asal hosili miqdori 3,9 kilogrammga tug'ri keldi. Olingan asalning rangi oqchil rangda bo'ldi va asal sifatiga berilgan baho 10 ballik baholash tizimida 9 ballga tug'ri keldi. Iyun oyida olingan hosil miqdori, rangi va sifatini tahlillab k'rganimizda hisobli yashiklardan (4 yashikdan o'rtacha) olingan asal hosili miqdori 3,8 kilogrammga tug'ri keldi. Olingan asalning rangi oqchil sarg'ish rangda bo'ldi va asal sifatiga berilgan baho 10 ballik baholash tizimida 9 ballga tug'ri keldi [5,6].

Paxta dalasi qoshiga quyilgan variantdan hosil olinishi iyul oyi oxiriga rejalashtirilgan.

Xulosalar;

1.Qoraqalpog'iston Respublikasida asalarachilikdan yuqori va sifatli hosil olish uchun asalari oilalariga yaxshi sharoit yaratish uchun asalari yashiklarini daraxzorlar, bedazorlar, yantaqzorlar va paxta dalalari qoshlariga joylashtirish lozim.

2.Asalari oilalariga yaxshi sharoit yaratish uchun ularning malum bir qismini k'chirish uchun quloy uskunalarga (telejkalarga, arabalarga, RPTU uskunasi ramalariga) joylashtirish maqsadga muvofiq.

3.Har bir variantdagi hisobdagi 4 yashikdan olingan o'rtacha hosil miqdorini hisoblaganda eng yuqori va sifatli hosil may oyidagi hosilda daraxtzorlar (4,3kg.) va yantaqzorlar (3,8kg.) qoshiga quyilgan variantlardan olindi.

4.Asal hosili rangi b'ycha eng yaxshi tovarlik rang may oyida daraxtzorlar va bog'lar qoshiga quyilgan variantdan olindi.

5.Asal hosili sifati, tami va tovarlik xossalari b'ycha eng yuqori k'rsatgichlar daraxtzorlar (bog'lar) va yantaqzorlar qoshiga quyilgan variantdan olindi.

6.Asalari mahsulotlarining (asal, mum, perga, propolis, asal zaxri va boshqa)) oziq ovqat mahsuloti va xalqimizning sihat salomatligini saqlashda dorilik xossalari borligini hisobga olib va qishloq x'jaligi ekinlarini changlatishda asalari oilalarini (yashiklarini) mavsum davrida tabiiy o'simliklarning gullashiga va boshqa zaruriyatlariga qarab bir hududdan boshqa hududga kadastrli k'chirish jadvallarini har bir asalarichilik x'jaliklari b'ycha ishlab chiqish zarur.

7.Qishloq x'jalik ekinlari zararkunandalariga qarshi kimyoviy preparatlarini q'llashda belgilangan xavfsizlik choralariga rioya qilish b'ycha tavsiyanomalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.



8. Asalarachilik kadastrlik jihatdan tug'ri joylashtirilsa olinadigan mahsulot hajmi 41-79% ga ortib va sifati yaxshilanganligi uchun iqtisodiy tomondan foydali soha ekanligi ilmiy tadqiqotlar orqali dalillandi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.10.2017-yildagi PQ-3327 sonli qarori "Asalarichilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan tashkil etish, asalarichilik x'ojaliklari faoliyati va samaradorligini oshirish, asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada ko'paytirish, asalni qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek asalarichilik sohasini ilg'or tajribalarini Respublikamizning barcha hududlariga tatbiq etish to'g'risidagi" qarori.

2. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi PF-5065-sonli "Yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish nazoratini kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. Toshkent. 2017.

3. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq x'ojaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. Toshkent. 2020.

4. Reimov N.B., Tursinbekova G.U. Qoraqalpog'istondagi asalarchilikni rivojlantirish itiqbollari.// Proceedings of International Educators Conference 2024. Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings Monthly. ISSN (E): 2835-396X. Vol.3, Issue 6 SJIF 2024: 6.659. 25th June, 2024. Italiya. 313-318 rr.

5. Reimov N.B., Tursinbekova G. Qoraqalpog'istonda asalarichilikni rivojlantirish.// Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferenciya provedennoe v Karakalpakskom institute sel'skogo xozyaystva i agrotexnologiy po teme «Sozdanie eksportnix intensivnix sortov, texnologiy i novix resursosberegayushix idey, ustoychivix k deficitu vodi i zasoleniyu pochv v usloviyax Priaral'e». 31 may 2024g. str 344-347.

6. Reimov N.B., Tursinbekova G. Qoraqalpog'iston sharoitida asalarchilik kadastrini yuritish.// Scientific conference on multidisciplinary Studies submit now Russia Conference vol. 3 no. 5 (2024): scms www.econferenceseries.com. 11th May 2024. 250-254 betlar.

7. Reimov N.B., Tursinbekova G. Qoraqalpog'istonda asalarchilik kadastrini tashkillashtirish.// Journal of New Century Innovations, Retrieved from. [article.view-13750.https://www.Newjournal.org/index.php/new](https://www.Newjournal.org/index.php/new). 52 (3), 72-74pp.